

OZOD SHARAFIDDINOV IJODIDA ABDULLA QAHHOR ASARLARI TAHLILI.

Farg‘ona davlat universiteti
filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi
Yo'lichiboyeva Mohichehra Solijon qizi

Annotatsiya. Mazkur maqolada taniqli adabiyotshunos olim Ozod Sharofiddinovning Abdulla Qahhor ijodiy merosini tadqiq etish metodologiyasi tahlil qilingan. Tadqiqotda o‘sha davr adabiy tanqidchiligidagi qotib qolgan qarashlardan voz kechilgan holda, Qahhor nasridagi milliy ruh, xarakterlar psixologiyasi va o‘ziga xos qisqalik (lakonizm) masalalari Sharofiddinov talqinida ilmiy va sodda tilda asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Ozod Sharofiddinov, Abdulla Qahhor, adabiy tanqidchilik, xarakter psixologiyasi, lakonizm, badiiy detal, ustoz va shogird.

Kirish. O‘zbek adabiyoti darslarida va adabiyotshunoslik ilmida ikki yirik ijodkorning fikrlari uchrashishi har doim qiziqarli voqea hisoblanadi. Shunday noyob hodisalardan biri — professor Ozod Sharofiddinovning Abdulla Qahhor ijodiy merosiga bag‘ishlangan tadqiqotlaridir. Olim Qahhor asarlarini o‘rganish orqali o‘sha davrdagi adabiy tanqidchiligining bir xil, qotib qolgan qarashlaridan butunlay chetga chiqdi.

Olim Qahhor asarlariga majburiy mafkuraviy qoidalar yoki davr talabi nuqtayi nazaridan emas, balki inson ichki dunyosini ochib beruvchi manba sifatida qaradi. Ushbu maqola Sharofiddinovning o‘ziga xos shaxsiy yondashuvini va tahlil usullarini ko‘rsatib beradi.

Asosiy Qism. Ozod Sharofiddinov Abdulla Qahhor ijodini chuqur hayotiy muammo sifatida tahlil qilgan. Olim adibning kichik hikoyalaridan tortib yirik romanlarigacha bo‘lgan barcha asarlarida inson tabiati va jamiyat muammolarini qanchalik to‘g‘ri tasvirlaganiga e‘tibor qaratgan. Bu borada taniqli adabiyotshunos olim N. Karimov ham

Sharofiddinovning qahhorshunoslik maktabi o‘zbek tanqidchiligida yangi davrni boshlab berganini alohida e’tirof etadi

Hammaniz biladigan "Sarob" romani haqida gapirganda, olim Saidiy obrazini shunchaki "yomon odam" yoki "adashgan qahramon" deb yuzaki baholamaydi. Aksincha, uning yolg‘izlanib qolgani, hayotda o‘z yo‘lini topolmay qiynalgan insoniy fojiasini ko‘rsatib beradi. Yoki "Sinchalak" qissasidagi Saida obrazini tahlil qilib, uning timsolida o‘zbek ayolining jasorati va eskicha qarashlarga qarshi tura olishini juda chiroyli ochib bergan.

"Bemor" yoki "Anor" hikoyalarida yozuvchi ko‘p gapirmaydi, lekin voqealar orqali odamlarning o‘zaro munosabatidagi sovuqchilikni va ijtimoiy muammolarni yaqqol ko‘rsatadi. Sharofiddinov buni Qahhorning eng katta yutug‘i deb ataydi. Boshqa tanqidchilar e’tibor bermagan oddiy buyumlar yoki badiiy detallar ham Qahhor ijodida qahramon ichki dunyosini ochishga xizmat qilishini Sharofiddinov yorqin misollar bilan ko‘rsatgan.

Ozod Sharofiddinov Qahhor ijodidagi fikrni juda qisqa va lo‘nda ifodalash mahoratiga — lakonizmga ham alohida to‘xtalgan. Olim yozishicha, Abdulla Qahhor asarlarida bitta ham ortiqcha gap yoki so‘zni topib bo‘lmaydi. Har bitta so‘z, hatto qahramonlarning gap orasida jim bo‘lib qolishi (pauza) ham katta ma‘no beradi. Olim o‘z maqolalarida Abdulla Qahhorning shunchaki stol atrofida o‘tirib ijod qiladigan yozuvchi bo‘lmaganini, balki har bir asari ustida yillar davomida ishlaganini ta’kidlaydi.

Shu o‘rinda, Ozod Sharofiddinov va Abdulla Qahhor o‘rtasidagi shaxsiy munosabatlarga ham to‘xtalib o‘tish lozim. Ular shunchaki munaqqid va yozuvchi emas, balki yaqin ustoz va shogird bo‘lishgan. Olim o‘zining xotiralarida Qahhorning nafaqat ijodda, balki kundalik hayotda ham o‘ta talabchan, haqiqatgo‘y va soxtalikni yomon ko‘radigan inson bo‘lganini yozadi. Bu hayotiy tajriba va suhbatlar Ozod Sharofiddinovga Qahhor asarlarining tub mohiyatini boshqa olimlarga qaraganda chuqurroq his qilish imkonini bergan.

Xulosa qilib aytganda, Ozod Sharofiddinov yaratgan qahhorshunoslik maktabi biz kabi universitet talabalari uchun badiiy matn bilan ishlashning eng go‘zal namunasidir.

Olim bizga faqatgina asarni o‘qishni emas, balki yozuvchi har bir detal orqali nima demoqchi bo‘lganini tushunishni o‘rgatadi. Uning qarashlari bugungi kunda ham darsliklarimiz va ilmiy ishlarimiz uchun eng ishonchli asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Abdulla Qahhor asarlari qanchalik o‘lmas bo‘lsa, Ozod Sharofiddinovning ularga bag‘ishlangan maqolalari ham o‘zbek adabiyotshunosligida shunchalik qadrli va doimiy qo‘llanma bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

- 1.Sharofiddinov O. Abdulla Qahhor. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1988. – B. 4.
- 2.Sharofiddinov O. Iste’dod jilolari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1976. – B. 76.
- 3.Karimov N. O‘zbek adabiy tanqidchiligi. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2012. – B. 12.
- 4.Qahhor A. Asarlar (Uch jildlik). 2-jild. – Toshkent: O‘qituvchi, 1987. – B. 145.
- 5.Normatov U. Qahhor nafosati. – Toshkent: Sharq, 2002. – B. 59.